



2023- yil yanvar-iyul oylari uchun  
dastlabki ma'lumot



## SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:  
(76) 225-65-74






## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Surxondaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-iyul oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **184 082,8 ming AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **51 059,1 ming AQSH** dollariga yoki **21,7 %** ga kamaydi.













**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **117 351,8** ming AQSH dollariga (**9,5 %** ga kamaydi) va import hajmi **66 731,0** ming AQSH dollariga (**36,7 %** ga kamaydi). Hisobot davrida **50 620,8** ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



### SURXONDARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-iyul, ming AQSH dollari)

<b>Pokiston</b> <b>TSA – 42 584,9</b> Eksport: 29 954,4 Import: 12 630,6  23,1 %	<b>XXR</b> <b>TSA – 40 835,3</b> Eksport : 22 027,4 Import : 18 807,9  22,2 %	<b>Afg‘oniston</b> <b>TSA – 33 468,6</b> Eksport : 32 938,7 Import : 529,8  18,2 %	<b>Rossiya Federatsiyasi</b> <b>TSA – 15 075,1</b> Eksport : 10 930,6 Import : 4 144,4  8,2 %	<b>Qozog‘iston</b> <b>TSA – 12 428,8</b> Eksport : 5 774,4 Import : 6 654,4  6,8 %
<b>Turkiya</b> <b>TSA – 10 330,4</b> Eksport : 5 070,7 Import : 5 259,7  5,6 %	<b>Tojikiston</b> <b>TSA – 7 398,1</b> Eksport : 2 312,6 Import : 5 085,6  4,0 %	<b>Italiya</b> <b>TSA – 3 791,9</b> Eksport : 0,0 Import : 3 791,9  2,1 %	<b>Hindiston</b> <b>TSA – 2 511,6</b> Eksport : 1 005,9 Import : 1 505,7  1,4 %	<b>Germaniya</b> <b>TSA – 2 150,9</b> Eksport : 435,6 Import : 1 715,3  1,2 %

Surxondaryo viloyati jahonning **54** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Pokistonda (**23,1 %**), XXRda (**22,2 %**), Afg'onistonda (**18,2 %**), Rossiyada (**8,2 %**), Qozog'istonda (**6,8 %**), Turkiyada (**5,6 %**), Tojikiston (**4,0 %**), Italiyada (**2,1 %**), Hindistonda (**1,4 %**) va Germaniyada (**1,2 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti.



### TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN 14 TA DAVLAT

(2023- yil yanvar-iyul, ming AQSH dollari)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **10** ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Afg'oniston, Pokiston, Rossiya, XXR, Eron, Polsha, Ozarbayjon, Qirg'iz Respublikasi, BAA va Belarus davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **10** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## SURXONDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, ming AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Pokiston</b>	<b>28 047,4</b>	<b>39 197,4</b>	<b>42 584,9</b>
 Eksport	22 018,2	19 000,4	29 954,4
Import	6 029,2	20 197,1	12 630,6
<b>XXR</b>	<b>89 320,5</b>	<b>56 744,2</b>	<b>40 835,3</b>
 Eksport	47 005,0	37 068,8	22 027,4
Import	42 315,5	19 675,4	18 807,9
<b>Afg'oniston</b>	<b>11 892,8</b>	<b>11 934,1</b>	<b>33 468,6</b>
 Eksport	11 656,9	11 526,8	32 938,7
Import	235,9	407,3	529,8
<b>Rossiya</b>	<b>28 500,5</b>	<b>50 966,3</b>	<b>15 075,1</b>
 Eksport	11 378,3	14 328,5	10 930,6
Import	17 122,1	36 637,8	4 144,4
<b>Qozog'iston</b>	<b>20 399,6</b>	<b>25 405,7</b>	<b>12 428,8</b>
 Eksport	5 123,7	18 784,7	5 774,4
Import	15 275,9	6 621,0	6 654,4
<b>Turkiya</b>	<b>16 979,9</b>	<b>16 147,4</b>	<b>10 330,4</b>
 Eksport	8 595,3	11 651,5	5 070,7
Import	8 384,6	4 495,9	5 259,7
<b>Tojikiston</b>	<b>4 632,4</b>	<b>6 412,3</b>	<b>7 398,1</b>
 Eksport	2 238,4	1 756,8	2 312,6
Import	2 394,0	4 655,6	5 085,6
<b>Italiya</b>	<b>959,8</b>	<b>409,2</b>	<b>3 791,9</b>
 Eksport	-	-	-
Import	959,8	409,2	3 791,9
<b>Hindiston</b>	<b>789,9</b>	<b>2 819,9</b>	<b>2 511,6</b>
 Eksport	27,2	306,5	1 005,9
Import	762,7	2 513,4	1 505,7
<b>Germaniya</b>	<b>5 124,8</b>	<b>2 024,4</b>	<b>2 150,9</b>
 Eksport	48,4	1 206,7	435,6
Import	5 076,3	817,7	1 715,3



	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	<b>Eron</b>	<b>3965,5</b>	<b>4571,1</b>	<b>1678,4</b>
	<i>Eksport</i>	117,6	3642,1	1276,4
	<i>Import</i>	3847,9	929,0	402,0
	<b>Niderlandiya</b>	<b>173,1</b>	<b>35,0</b>	<b>1643,0</b>
	<i>Eksport</i>	-	0,1	0,3
	<i>Import</i>	173,1	34,9	1642,7
	<b>Polsha</b>	<b>232,0</b>	<b>372,1</b>	<b>1428,0</b>
	<i>Eksport</i>	103,9	286,1	1059,3
	<i>Import</i>	128,1	86,0	368,7
	<b>Belarus</b>	<b>1151,1</b>	<b>1595,6</b>	<b>950,0</b>
	<i>Eksport</i>	389,7	1316,0	640,7
	<i>Import</i>	761,4	279,6	309,2
	<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>1136,6</b>	<b>1114,1</b>	<b>805,7</b>
	<i>Eksport</i>	-	13,5	0,03
	<i>Import</i>	1136,6	1100,6	805,7
	<b>Turkmaniston</b>	<b>874,1</b>	<b>918,0</b>	<b>731,6</b>
	<i>Eksport</i>	215,4	282,5	135,6
	<i>Import</i>	658,8	635,5	596,1
	<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>2923,4</b>	<b>6776,5</b>	<b>686,8</b>
	<i>Eksport</i>	2255,7	6066,8	633,5
	<i>Import</i>	667,7	709,7	53,2
	<b>Ozarbayjon</b>	<b>819,3</b>	<b>1011,3</b>	<b>665,1</b>
	<i>Eksport</i>	819,3	1011,3	665,1
	<i>Import</i>	-	-	-
	<b>Litva</b>	<b>146,1</b>	<b>1881,2</b>	<b>611,5</b>
	<i>Eksport</i>	-	-	0,2
	<i>Import</i>	146,1	1881,2	611,3
	<b>BAA</b>	<b>115,4</b>	<b>234,1</b>	<b>547,2</b>
	<i>Eksport</i>	115,4	234,1	519,8
	<i>Import</i>	-	-	27,4



## SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-iyul)\*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>184 082,8</b>	<b>78,3</b>	<b>100,0</b>
Termiz sh.	28 692,9	92,2	15,6
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	5 825,6	62,2	3,2
Angor	12 728,2	148,6	6,9
Bandixon	3 360,8	105,2	1,8
Boysun	4 333,3	70,7	2,4
Muzrabot	7 675,1	120,9	4,2
Denov	28 540,0	90,2	15,5
Jarqo'rg'on	14 492,5	61,0	7,9
Qumqo'rg'on	5 565,7	80,5	3,0
Qiziriq	8 936,1	84,8	4,9
Sariosiyo	11 294,2	33,8	6,1
Termiz	20 086,9	77,1	10,9
Uzun	10 956,5	75,9	6,0
Sherobod	14 105,6	99,8	7,7
Sho'rchi	7 383,8	78,2	4,0

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSH dollari



**Termiz sh.** 28 692,9

**Denov** 28 540,0

**Termiz** 20 086,9

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSH dollari



**Bandixon** 3 360,8


**Boysun** 4 333,3

**Qumqo'rg'on** 5 565,7

Surxondaryo viloyatida tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Termiz shahri **15,6 %** ulush bilan **28 692,9** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bandixon tumanida **1,8 %** ulush bilan **3 360,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## SURXONDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **29,1** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **19,1** % ga kamayib, so'ngi uch yilda eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



Surxondaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-iyul oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **19,1** % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi **79,0** % ni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, **38 632,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **21 725,9** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **16 906,4** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## SURXONDARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-iyul, ming AQSH dollari)

<p><b>Rossiya Federatsiyasi</b> TSA – 15 075,1 Eksport – 10 930,6 Import – 4 144,4</p> 	<p><b>Qozog'iston</b> TSA – 12 428,8 Eksport – 5 774,4 Import – 6 654,4</p> 
<p><b>Tojikiston</b> TSA – 7 398,1 Eksport – 2 312,6 Import – 5 085,6</p> 	<p><b>Belarus Respublikasi</b> TSA – 950,0 Eksport – 640,7 Import – 309,2</p> 
<p><b>Turkmaniston</b> TSA – 731,6 Eksport – 135,6 Import – 596,1</p> 	<p><b>Qirg'iz Respublikasi</b> TSA – 686,7 Eksport – 633,5 Import – 53,2</p> 
<p><b>Ozərbayjon</b> TSA – 665,1 Eksport – 665,1 Import – 0,0</p> 	<p><b>Ukraina</b> TSA – 425,7 Eksport – 362,2 Import – 63,5</p> 
<p><b>Armaniston</b> TSA – 246,1 Eksport – 246,1 Import – 0,0</p> 	<p><b>Moldova Respublikasi</b> TSA – 25,1 Eksport – 25,1 Import – 0,0</p> 



Surxondaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**39,0%**), Qozog'iston (**32,2 %**) hamda Tojikiston (**19,2 %**) davlatlari bilan qayd etildi.



## SURXONDARYO VILOYATINING EKSPORTI



Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida Surxondaryo viloyatida eksportyorlar soni **241** taga yetdi va ular tomonidan **117 351,8** ming AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **9,5 %** ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilindi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-iyul, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-iyul, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami eksport</b>	<b>129 647,6</b>	<b>117 351,8</b>	<b>113,9</b>	<b>90,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	56 910,3	56 309,1	141,7	98,9	43,9	48,0
Ichimliklar va tamaki	10,5	844,1	3,6	80,6 m.	-	0,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	5 387,4	3 382,8	69,9	62,8	4,2	2,9
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	692,1	-	27,8 m.	-	0,5	-
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	211,0	-	-	-	0,2	-
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	164,9	143,5	2,2 m.	87,0	0,1	0,1
Sanoat tovarlari	61 283,3	46 850,4	99,0	76,4	47,3	39,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	94,7	86,9	45,7	91,7	0,1	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	3 177,8	7 210,9	2,6 m.	2,3 m.	2,5	6,1
Xizmatlar	1 715,6	2 524,0	77,7	147,1	1,3	2,2

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **97,8 %** ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**48,0 %**), sanoat tovarlari (**39,9 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**6,1 %**) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.





## SURXONDARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-iyul)

XSST bo‘limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	46 229,7	84,6
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	10 051,2	12,7 m.
Qaxva, choy, kakao, ziravorlar	17,1	2,2
Tirik hayvonlar, 03-bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	10,3	-
Shakar, shakardan mahsulotlari va asal	0,8	22,5
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	844,1	80,6 m.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari</b>		
To‘qimachilik tolalari (tops va boshqa titilgan jundan tashqari) va ularning chiqindilari	1 220,5	84,0
Xayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	1 198,3	3,3 m.
Moy olinadigan urug‘lar va moy olinadigan mevalar	744,7	25,3
56 bo‘limga kiritilgandan tashqari o‘g‘itlar uchun xom - ashyo va mineral xomashyo (ko‘mir,neft va qimmat baho toshlardan tashqari)	219,3	34,9
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar</b>		
Bo‘yoqlar, taninlar va bo‘yoqlar	135,3	116,3
Noorganik kimyoviy moddalar	3,8	15,0 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2,6	86,7
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari;hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	1,4	3,3
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,4	-
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashina va uskunalar, boshqa nomga ega bo‘lmagan va boshqa nomdagi mashinalar qismlari.	79,3	5,4 m.
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari xam)	4,2	6,4
Aniq soxalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar	3,4	36,8


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	25 237,3	46,5
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tafsiflanmagan	771,9	119,4
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	373,1	5,2 m.
Metaldan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tafsiflanmagan	28,8	1,3
Mantar va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	3,0	4,6
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	0,1	8,6
<b>Xizmatlar</b>		
Transport xizmatlari	982,3	2,3 m.
Moliyaviy xizmatlar	749,9	162,7
Sayohat	454,2	69,4
Boshqa biznes xizmatlari	258,2	2,0 m.
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	883,4	33,4
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	400,3	2 341,1 m.
Poyabzal	118,1	7,7 m.
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	20,7	4,5
Har xil tayyor mahsulotlar	0,3	10,8

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida MDH mamlakatlariga **21 725,9** ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **18,5 %** ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz, Afg'oniston, Pokiston, XXR, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **92,9 %** ni tashkil etdi.

## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI

(2023- yil yanvar-iyul, % da)







## SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyul, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'рни	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Afg'oniston	11 526,8	32 938,7	98,9	2,9 m.	6	1
Pokiston	19 000,4	29 954,4	86,3	157,7	2	2
XXR	37 068,8	22 027,4	78,9	59,4	1	3
Rossiya	14 328,5	10 930,6	125,9	76,3	4	4
Qozog'iston	18 784,7	5 774,4	3,7 m.	30,7	3	5
Turkiya	11 651,5	5 070,7	135,6	43,5	5	6
Tojikiston	1 756,8	2 312,6	78,5	131,6	9	7
Eron	3 642,1	1 276,4	31,0 m.	35,0	8	8
Polsha	286,1	1 059,3	2,8 m.	3,7 m.	14	9
Hindiston	306,5	1 005,9	11,3 m.	3,3 m.	13	10
Ozarbayjon	1 011,3	665,1	123,4	65,8	12	11
Belarus	1 316,0	640,7	3,4 m.	48,7	10	12
Qirg'iz Respublikasi	6 066,8	633,5	2,7 m.	10,4	7	13
Vetnam	-	527,2	-	-	-	14
BAA	234,1	519,8	2,0 m.	2,2 m.	17	15
Germaniya	1 206,7	435,6	24,9 m.	36,1	11	16
Iroq	255,7	363,1	16,2 m.	142,0	16	17
Ukraina	193,1	362,2	23,3	187,6	18	18
Armeniya	88,8	246,1	-	2,8 m.	23	19
Turkmaniston	282,5	135,6	131,2	48,0	15	20



## SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-iyul)\*

	Hajm Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>117 351,8</b>	<b>90,5</b>	<b>100</b>
Termiz sh.	6 727,0	133,1	5,7
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	4 160,2	62,7	3,5
Angor	7 683,8	92,8	6,5
Bandixon	3 342,9	119,6	2,8
Boysun	3 853,8	81,4	3,3
Muzrabot	6 030,3	109,1	5,1
Denov	13 741,6	70,7	11,7
Jarqo'rg'on	10 394,0	55,2	8,9
Qumqo'rg'on	5 247,8	87,3	4,5
Qiziriq	7 765,6	191,4	6,6
Sariosiyo	8 468,3	248,8	7,2
Termiz	13 178,4	79,1	11,2
Uzun	7 871,9	74,4	6,7
Sherobod	12 011,8	98,6	10,2
Sho'rchi	6 768,8	125,1	5,8

Eng yuqori hajm, ming AQSH dollari



Denov

13 741,6

Termiz

13 178,4

Sherobod

12 011,8

Eng quyi hajm, ming AQSH dollari



Bandixon

3 342,9

Boysun

3 853,8

Oltinsoy

4 160,2

Viloyatimiz eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Denov tumani **11,7 %** bilan **13 741,6** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Bandixon **2,8 %** bilan **3 342,9** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-iyul oylari-da **52 787,0** tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **62,8 %** ga yoki **31 331,0** tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (**46,9 %**), Afg'oniston (**11,2 %**), Rossiya (**11,1 %**), XXR (**10,9 %**) hamda Qozog'iston (**9,9 %**) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **46 447,0** ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **20,1 %** ga kamaydi va jami eksportdagi ulushi **39,6 %** ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-iyul, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)







## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-iyul)

Davlatlar	tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
Pokiston	6 841,8	21 771,0	46,9
Afg'oniston	6 594,0	5 225,0	11,2
Rossiya	6 918,3	5 157,0	11,1
XXR	5 081,9	5 043,4	10,9
Qozog'iston	21 978,4	4 603,8	9,9
Eron	1 037,5	1 223,3	2,6
Belarus	1 161,7	636,4	1,4
Polsha	851,7	437,3	0,9
Germaniya	175,7	435,0	0,9
Ukraina	668,9	360,6	0,8
Iroq	230,4	358,9	0,8
BAA	253,3	307,8	0,7
Ozərbayjon	207,2	248,0	0,5
Turkiya	114,0	144,3	0,3
Tojikiston	339,3	126,2	0,3
Turkmaniston	90,4	116,0	0,2
AQSh	17,3	108,6	0,2
Gruziya	43,4	46,6	0,1
Latviya	64,5	38,4	0,1
Boshqa davlatlar	117,4	59,3	0,1

\* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-iyul oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **46,9** % ).



## TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.



Xususan, 2023- yil yanvar-iyul oylari yakuni bo‘yicha **53 132** ming AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **45,3** % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **13,3** % ga kamaydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (**43,1** %), gilamlar (**32,6** %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**12,6** %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan dunyoning **17** ta davlatiga eksport qilindi.

## TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, ming AQSH dollari)



	2022- yil	2023- yil
<b>Jami:</b>	<b>61 283,7</b>	<b>53 132,1</b>
 Paxtadan yigirilgan ip	51 650,9	22 888,2
 Gilamlar	16,8	17 317,3
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	2 691,1	6 671,5
 Paxtadan gazlamalar	5 102,0	4 622,5
 Ipak va ipak mahsulotlari	1 446,1	1 553,1
 Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari	376,8	79,5



## DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, ming AQSH dollari)




	2022- yil	2023- yil	O‘shish sur‘ati, % da
Afg‘oniston	439,0	24 218,4	55,2 m.
XXR	35 895,0	16 982,7	47,3
Turkiya	10 667,7	4 604,8	43,2
Rossiya	5 569,0	3 450,1	62,0
Pokiston	3 586,4	961,9	26,8
Tojikiston	200,0	835,1	4,2 m.
Polsha	101,0	621,2	6,2 m.
Vetnam	-	527,1	-
Armeniya	88,8	246,1	2,8 m.
BAA	123,6	211,9	171,4
Qirg‘iz Respublikasi	2 582,9	191,0	7,4
Chexiya	-	119,3	-
Ozarbayjon	-	64,3	-
Eron Islom Respublikasi	1 574,6	53,1	3,4
Qozog‘iston	-	45,3	-
Germaniya	374,8	-	-
Belarus	23,7	-	-

 To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Turkiya (**45,6 % – 24 218,4** ming AQSH dollari), XXR (**32,0 % – 16 982,7** ming AQSH dollari), Turkiya (**8,7 % – 4 604,8** ming AQSH dollari) va Rossiya Federatsiyasi (**6,5 % – 3 450,1** ming AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



### XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **2 524,0** ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **2,2** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **47,1** % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (**36,3** %), moliyaviy (**33,4** %), safarlar (turizm) (**18,8** %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**11,5** %) hissasiga to'g'ri kelgan.






## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI

2023- yilning yanvar-iyul oylarida import hajmi **66 731,0** ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **63,3** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**45,9** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**26,1**%), hamda sanoat tovarlari (**19,4** %) hisobiga to‘g‘ri keldi.



### XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **38 728,6** ming AQSH dollariga kamaydi va **66 731,0** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **155,5** ming AQSH dollariga yetdi.



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-iyul, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>105 494,3</b>	<b>66 731,0</b>	<b>87,6</b>	<b>63,3</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	28 986,8	17 404,4	189,3	60,0	27,5	26,1
Ichimliklar va tamaki	-	155,2	-	-	-	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	1 773,4	728,9	34,0	41,1	1,7	1,1
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	317,8	1 080,4	33,0	3,4 m.	0,3	1,6
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	-	327,3	-	-	-	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	3 575,8	1 788,3	143,9	50,0	3,4	2,7
Sanoat tovarlari	42 826,2	12 977,7	100,5	30,3	40,6	19,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	25 940,2	30 637,7	53,0	118,1	24,6	45,9
Turli xil tayyor buyumlar	1 883,8	1 475,6	51,3	78,3	1,8	2,2
Xizmatlar	190,2	155,5	3,1 m.	81,8	0,2	0,2



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-iyul)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	12 108,4	57,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	4 609,7	2,4 m.
Hayvonlarga ozuqa (ishlov berilmagan donalardan tashqari)	297,3	34,8
Turli xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlari	124,6	2,6 m.
Tirik hayvonlar, 03-bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	113,4	3,0
Shakar, shakardan mahsulotlari va asal	105,8	9,5
Qaxva, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	45,2	52,7
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	438,2	40,6 m.
Probka va yog'och taxtalar	223,1	143,7
Xayvonlar va o'simliklardan olinadigan kelib chiqqan xom-ashyo materiallari, boshqa joyda tavsiflanmagan	43,3	2,9
To'qimachilik tolalari (yuqori va boshqa taroqli jundan tashqari) va ularning chiqindilari (kalava yoki matoga qayta ishlanmagan)	12,6	-
56 bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom - ashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmat baho toshlardan tashqari)	11,8	26,9
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 080,4	3,3 m.
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1160,1	86,5
Birlamchi bo'lmagan plastmassalar	148,5	14,1
Organik kimyoviy moddalar	104,1	42,0
Noorganik kimyoviy moddalar	85,2	4,8 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	82,9	44,3
Efir moylari, resinoidlar va parfyumeriya moddalari; tualetga	79,6	2,2 m.
O'g'itlar (272 guruhga kiritilganlardan tashqari)	69,3	19,6
Birlamchi shakldagi plastmassalar	46,5	15,8
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	12,2	27,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	886,1	189,9

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Boshqa toifalarga kiritilmagan suv-kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari blokli binolar, armatura va mahkamlash	324,5	28,3
Yo'l aksessuarlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	155,4	103,2
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	93,2	80,9
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	14,0	-
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar	2,0	59,5
Poyabzal	0,2	12,1
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	6 284,6	120,4
Cho'yan va po'lat	3 187,0	8,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	2 483,3	12,8 m.
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	574,2	118,2
Rezina buyumlari boshqa joyda tavsiflanmagan	254,1	56,0
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	97,7	70,2
Mantar va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar	78,1	166,2 m.
Rangli metallar	18,7	51,4
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	19 756,8	119,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	3 839,8	103,1
Avtomobillar (xavo podushkalaridagi transport vositalari xam)	3 679,9	123,9
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	2 205,1	2,4 m.
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalari	684,3	127,3
Metallni qayta ishlash mashinalari	454,3	3,2 m.
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunalari	13,4	102,0
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblari va uskunalari	4,3	19,1 m.






2023- yil yanvar-iyul natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **25,4 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **22,6 %** ga kamaydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-iyul oylarida viloyatimiz **40** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Pokiston, Qozog'iston, Turkiya, Tojikiston, Rossiya Federatsiyasi va Italiya) jami importning **3/4** qismini tashkil etdi.



## RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-iyul, % da)





## SURXONDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyul, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
XXR	19 675,4	18 807,9	46,5	95,6	3	1
Pokiston	20 197,1	12 630,6	335,0	62,5	2	2
Qozog'iston	6 621,0	6 654,4	43,3	100,5	4	3
Turkiya	4 495,9	5 259,7	53,6	117,0	6	4
Tojikiston	4 655,6	5 085,6	194,5	109,2	5	5
Rossiya Federatsiyasi	36 637,8	4 144,4	214,0	11,3	1	6
Italiya	409,2	3 791,9	42,6	926,6	17	7
Germaniya	817,7	1 715,3	16,1	209,8	12	8
Niderlandiya	34,9	1 642,7	20,2	4 703,2	30	9
Hindiston	2 513,4	1 505,7	329,6	59,9	7	10
Koreya Republikasi	1 100,6	805,7	96,8	73,2	9	11
Litva	1 881,2	611,3	1 287,3	32,5	8	12
Turkmaniston	635,5	596,1	96,5	93,8	14	13
Ispaniya	3,1	540,3	#ДЕЛ/0!	17 634,5	35	14
Afg'oniston	407,3	529,8	172,7	130,1	18	15
Eron	929,0	402,0	24,1	43,3	11	16
Polsha	86,0	368,7	67,1	428,9	24	17
Xitoy, Gonkong MMR	77,0	359,8	175,0	467,3	25	18
Belarus	279,6	309,2	36,7	110,6	20	19
Estoniya	173,2	223,1	211,3	128,8	23	20



## SURXONDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023- yil yanvar-iyul)

	Hajm Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>66 731,0</b>	<b>63,3</b>	<b>100,0</b>
Termiz sh.	21 965,9	84,3	32,9
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	1 665,4	60,9	2,5
Angor	5 044,4	1 754,6	7,6
Bandixon	17,9	4,5	0,0
Boysun	479,5	34,4	0,7
Muzrabot	1 644,8	200,8	2,5
Denov	14 798,4	121,1	22,2
Jarqo'rg'on	4 098,5	83,1	6,1
Qumqo'rg'on	317,9	35,3	0,5
Qiziriq	1 170,5	18,0	1,8
Sariosiyo	2 825,9	9,4	4,2
Termiz	6 908,5	73,6	10,4
Uzun	3 084,6	80,0	4,6
Sherobod	2 093,8	107,0	3,1
Sho'rchi	615,0	15,3	0,9

Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,  
ming AQSH dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Termiz shahri **32,9** % bilan **21 965,9** ming AQSH dollarini, eng quyi, Bandixon **17,9** ming AQSH dollarini tashkil etdi.